



CHET EL FUQAROLARI UCHUN **DAROMAD SOLIG'I STAVKASI PASAYTIRILADI**



2022-yil 1-maydan

Norezident shaxslarga daromad solig'i 12 foiz miqdorida belgilanadi *(ilgari 20 foizgacha edi)*



2022-yil 1-iyuldan

Bojxona bojlari bo'yicha imtiyozlar faqatgina qonunlar bilan beriladi



2022-yil 1-iyuldan

Davlat ishtirokidagi korxonalar kuzatuv kengashi a'zolarini rag'batlantirish va ijro organi a'zolariga haq to'lashda yagona rag'batlantirish siyosati joriy etiladi

Davlat ishtirokidagi korxonalarga Prezident va Hukumat qarorlarida nazarda tutilmagan hollarda **quyidagilar taqiqlanadi:**



faoliyatiga xos bo'lmagan yangi obyektlarni sotib olish yoki



raqobat rivojlangan sohada faoliyatidan tashqari **qo'shimcha faoliyat bilan shug'ullanish**



faoliyatiga xos bo'lmagan xo'jalik jamiyatlari ustav kapitalida ishtirok etish yoki undagi ulushni sotib olish



Davlat ishtirokidagi korxonalar va davlat ulushi 50 foiz va undan ko'p bo'lgan banklar tomonidan mulkni sotish, boshqa korxonaga **investitsiya kiritish kelishuvlari majburiy tarzda korxonalar kuzatuv kengashi bilan kelishiladi**

Davlat korxonalarining homiylikka sarflanadigan har yilgi xarajatlari o'tgan yilda olingan sof foydaning **3 foizidan oshmasligi kerak.**



CHET EL FUQAROLARIGA O'ZBEKISTONDA KO'CHMAS MULK OLISHLARI YENGILLASHDI



Qishloq xo'jaligiga mo'ljallanmagan yerlarni auksion orqali sotishda to'lovlarni **3 yilgacha bo'lib-bo'lib to'lashga** ruxsat etiladi



2022-yil 1-maydan Hukumat tasdiqlagan ro'yxatdagi xorijiy davlatlar fuqarolariga yashash guvohnomasini talab qilmasdan, quyidagilarga investitsiya kiritish huquqi beriladi:

- ✔ Toshkent viloyati, Toshkent va Samarqand shaharlarida – qurilish davridagi qiymati **150 ming AQSH dollaridan**, foydalanishga topshirilganda esa **180 ming AQSH dollaridan kam bo'lmagan** obyektlar
- ✔ Boshqa hududlarda – qurilish davridagi qiymati **70 ming AQSH dollaridan**, foydalanishga topshirilganda esa **85 ming AQSH dollaridan** kam bo'lmagan obyektlar

Xorijiy fuqarolarga yashash guvohnomasini olish uchun Toshkent viloyati va Toshkent shahridan oladigan ko'chmas mulki qiymati 400 ming AQSH dollaridan **300 ming AQSH dollarigacha kamaytirildi**

Quyidagi tartiblar joriy etildi:

Oxirgi yildagi savdo tushumi **BHMning 10 ming baravaridan** (2,7 mlrd so'mdan) oshmaydigan tadbirkorlarga nisbatan **monopoliyaga qarshi choralar qo'llanilmaydi**



2022-yil 1-sentyabrdan raqobatga qarshi harakat qilgan xo'jalik yurituvchi subyektlarga quyidagilar uchun moliyaviy jarimalar qo'llaniladi:



tovar va moliya bozorida **raqobatni cheklashga olib keluvchi kelishuvlar** va iqtisodiy faoliyatni muvofiqlashtirish



ijtimoiy va strategik ahamiyatga ega **mahsulotlar narxlarini asossiz oshirganlik** va insofsiz raqobat



xo'jalik yurituvchi subyektlarni qo'shib yuborishda, qo'shib olishda va aksiyalarni sotib olish bitimlarini tuzishda **raqobatni buzish**



ommaviy savdolarida **raqobatga zid harakatlar amalga oshirganlik** va monopoliyaga qarshi talablarni buzish